

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,
Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна –
психология фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий
университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Norbekov Ahmadjon Norbekovich

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY

HOLATI 11-18

Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li

BAQTIRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI..... 19-23

Нуритдинова Нодира Сирожовна

XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН

ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА)..... 24-28

Чориев Шоҳрух Холтура ўғли

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ

СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА 29-38

Жумаева Шоира Бердияровна

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА

МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ 39-43

Jo'rayev Muxriddin Xasanovich

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI

GEOGRAFIYASI..... 44-51

Муқимова Рисолат Рустамжон қизи

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР 52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ

ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ 57-69

Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna

MINAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI 70-75

Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI 76-86

Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ

ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ 87-92

Исламтудинова Дина Файзрахмановна

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН 93-102

Qobiljon Isaev

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY

BAHOLASH 103-110

09.00.00 – FALSAFA FANLARI*Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKISTONDA "AHOLI HAYOT SIFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) 111-116

Расулов Зоҳиддин Усарович

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ХАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙЎНЛИГИ 117-122

Тавмурадов Жамшид Элмурадович

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС 123-128

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

YUSUF QORABOG'IIY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI 129-132

Muxtorova To'tixon Solijonovna

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR 133-137

Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI 138-142

Ahmedova Dilrabo

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIIY, MA'NAVIIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIIY POTENSIALI 143-150

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI 151-159

Seytnazarova Injayim

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI 160-168

Tukhtakhodjaeva Zulfiya

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY 169-174

Abdusalamov Doniyor Togayali ogli

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES 175-179

Axmedov Anvar Botirovich

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR 180-184

Aminov Farrukh Komiljon Ugli

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES 185-193

Sharipov Bobur Salimovich

RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA 194-201

Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 202-205

Samatov Farxod Muminovich

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) 206-210

Kendjayeva Zemfira

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», «IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI 217-221

Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLER 222-226

Шарапова Лола Станиславовна

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

Ҳакимова Мастура Файзиллаевна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) 233-239

Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna

"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI 240-245

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI 246-250

Багаутдинова Ильмира Салаватовна

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ 251-255

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE 256-268

Алиев Асилбек Кадирович

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА 269-275

Hong Weixing

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA 276-284

Султанова Сабохат Алишеровна

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 285-290

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI 291-298

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ 299-304

Khalikov Khayot

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH 305-311

Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА .. 312-317

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDUCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI
O'YINLARNING O'RNI 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI
HAQIDA 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODLARI 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI
DASTURLARDAN FOYDALANISH 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI 393-399

Nishonov Nodir Alimjanovich

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI

RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI 400-404

Xidirova Durdona Muxtorovna

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY

MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI 405-408

Received: 10 December 2024
Accepted: 15 December 2024
Published: 25 December 2024

Article / Original Paper

ISSUES OF COMBATING TRANSNATIONAL CRIMES IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY IN UZBEKISTAN

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla kizi,

Doctorol student of University of World Economy and Diplomacy.

Abstract. This article discusses how the rapid development of digital infrastructure and the widespread introduction of modern technologies have not only opened up new opportunities, but also created threats to the security of the state, society, and business. In particular, transnational criminal groups are using cyberspace for financial fraud, data theft, malware distribution, and other illegal activities. In response to these calls, Uzbekistan is actively improving legislation, strengthening international cooperation, and taking appropriate measures to combat crimes in the field of information technology in order to protect national interests and ensure digital security.

Keywords: Uzbekistan, information technologies, transnational crimes, international law, treaties, combat, cybercrimes.

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti doktoranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli infratuzilmaning jadal rivojlanishi va zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi nafaqat yangi imkoniyatlarni ochib berganligi, balki, davlat, jamiyat va biznes xavfsizligiga tahdidlarni ham yaratayotganligi haqida so'z boradi. Xususan, transmilliy jinoiy guruhlar kibermakondan moliyaviy firibgarlik, ma'lumotlarni o'g'irlash, zararli dasturlarni tarqatish va boshqa noqonuniy harakatlar uchun foydalanmoqda. Ushbu chaqiriqlarga javoban O'zbekiston milliy manfaatlarni himoya qilish va raqamli xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qonunchilikni faol takomillashtirmoqda, xalqaro hamkorlikni mustahkamlamoqda va axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarga qarshi kurashda tegishli choralar ko'rmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, axborot texnologiyalari, transmilliy jinoyatlar, xalqaro huquq, shartnomalar, kurashish, kiberjinoyatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N39>

Raqamli makonda transmilliy jinoyatlar global xavfsizlikka eng jiddiy tahdidlardan biriga aylanib bormoqda. Mazkur jinoyatchilikka qarshi kurash xalqaro miqyosda birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab etadi. Davlatlar o'rtasida axborot va tajriba almashish esa xalqaro hamkorlikning asosiy tamoyillaridan biridir. Bunga qo'shma tekshiruvlar, xalqaro operatsiyalarda ishtirok etish va kibertahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha qo'shma strategiyalarni ishlab chiqishni misol qilib keltirish mumkin.

Butunjahon kiberxavfsizlik assosiatyasi (World Cybersecurity Association) ma'lumotlariga ko'ra, kiberjinoyatlar har yili jahon iqtisodiyotiga 1 trillion dollardan ortiq zarar

keltiradi[1]. 2024-yilda jahon iqtisodiyotiga axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlardan yetkazilgan zarar 9,5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Bu muhim ko'rsatkich bo'lib, tahdidlarning jiddiyligini va uning butun dunyo bo'ylab biznes va hukumatlarga ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur zararlar 2025-yilga borib 10,5 trillion dollarga ko'tarilishi taxmin qilinmoqda. [2]

O'zbekiston 2023-yilda 11 milliondan ortiq kiberhujumga duch keldi. Ushbu hujumlarning asosiy sababi mamlakatda yetuk kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilishdagi kamchiliklar bilan baholandi. Aksariyat hujumlar veb-resurslarga, jumladan, davlat va xususiy saytlarga qaratilgan bo'lib, xorijda ham, mamlakat ichida ham sodir bo'lgan. [3] Ma'lumotlarga ko'ra, birgina 2024-yilning birinchi choragida 3 milliondan ortiq kiberhujum qayd etilgan. Bunda aniqlangan muammolarga kontentni tekshirish bilan bog'liq muammolar, zaif parol himoyasi va saytlararo so'rovlardan yetarlicha himoyalanmaganligi kiradi. [4]

Mamlakatimiz mazkur tahdidlarga qarshi kurashish muhimligini anglagan holda, axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan **milliy siyosat va qonun hujjatlarini ishlab chiqmoqda** va amalga oshirmoqda. Xususan, O'zbekistonda axborot texnologiyalari sohasida xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha 2019-yilda mamlakat axborot resurslarini himoya qilishning asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlarini belgilovchi "**Axborot xavfsizligi konsepsiyasi**" qabul qilindi.

Konsepsiya axborot xavfsizligi sohasida davlat siyosatining strategik vazifalarini belgilab beruvchi va muvofiqlashtiruvchi muhim hujjat hisoblanadi. Hujjat o'zaro axborot hamkorligi uchun xavfsiz muhitni shakllantirish hamda axborot, kommunikatsiya va texnologiya tizimlarining milliy axborot makonida barqaror ishlashini, ulardan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida xavfsiz foydalanishni rag'batlantiradi. [5]

Kiberxavfsizliklar monitoringi va ularning oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun mas'ul bo'lgan **Kiberxavfsizlik markazining** tashkil etilishi ushbu konsepsiya doirasidagi muhim qadam bo'ldi. Markaz shuningdek, axborot almashish va kiberjinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish maqsadida Interpol va BMT kabi xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi.

"Kiberxavfsizlik markazi" davlat unitar korxonasi nomi bilan 14.09.2019 yildagi PQ-4452-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq faoliyat yuritib kelmoqda. [5]

Markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va to'plash, davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta'minlaydigan samarali tashkiliy va dasturiy-texnik yechimlarni tezkor qabul qilish bo'yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish;
- qonun buzuvchilarni, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari, huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

- axborotlashtirish obyektlarida (davlat sirlari bundan mustasno) apparat vositalari va dasturiy mahsulotlarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya jihozlari va boshqa texnik vositalarni attestatsiya, ekspertiza va sertifikatlaydigan o'tkazish;

- davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko'maklashish;

- davlat axborot tizimlari va resurslari, shuningdek, Internet tarmog'i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog'i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo'layotgan tahdidlar to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish, shuningdek, axborotlarni himoya qilish bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish. [6]

Axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslarini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda bir qator qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Asosiy hujjatlardan biri 2020-yilda qabul qilingan **“Kiberxavfsizlik to'g'risida”**gi qonundir. Ushbu Qonunning maqsadi kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. [7] Shuningdek, qonun keng ko'lamli masalalarni, jumladan kibertahdidlar ta'rifini, axborot xavfsizligi talablarini va hodisalarga javob berish mexanizmlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik sohasida davlat organlari va xususiy sektor hamkorligi uchun huquqiy asos yaratadi.

O'zbekistonda axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida **ta'lim va kadrlar tayyorlash** mamlakatning raqamli resurslarni himoya qilish va kibertahdidlarga chidamliligini ta'minlashga qaratilgan milliy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda xalqaro axborot xavfsizlik standartlariga rioya qilish va axborot texnologiyalari bilan bog'liq xavflarni kamaytirish maqsadida ushbu soha faol rivojlanmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslashtirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish muhim qadamlardan biridir. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) mazkur yo'nalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Universitetda kibertahdidlar, ma'lumotlar xavfsizligi texnikasi, kiberetika va kiberxavflarni boshqarish kabi mavzularni qamrab oluvchi bakalavriat va magistratura dasturlari ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar axborot texnologiyalari sohasida yangi muammolarga samarali dosh bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi. [8]

Bundan tashqari, TATUda nafaqat kadrlar tayyorlash, balki axborot xavfsizligi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanuvchi Kiberxavfsizlik markazi tashkil etilgan. Markaz turli davlat va xususiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, talabalarga amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va ularni real dunyoda kiberxavfsizlik bo'yicha loyihalarga jalb etish uchun hamkorlik qiladi.

Shuningdek, Kiberxavfsizlik markazida huquq-tartibot idoralari va axborot texnologiyalari mutaxassislari uchun o'quv dasturlari joriy etilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda mutaxassislarni o'qitadi va tadqiqot olib boradi.

Bugungi kunda O'zbekiston axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlar bo'yicha faol xalqaro hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Xususan, 2021-yilda O'zbekistonning **Budapesht konvensiyasiga** qo'shilishi kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda

xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamladi. Konvensiya a'zo mamlakatlarga kiberjinoyatlarni birgalikda tekshirish, dalillarni almashish va milliy chegaralar orqali faoliyat yurituvchi jinoyatchilarni ta'qib qilish vositalarini taqdim etadi. Bu ayniqsa transmilliy xususiyatga ega jinoyatchilikka qarshi kurashishda O'zbekiston uchun muhim hisoblanadi.

Soha mutaxassislaridan Eesha Chakrabortining fikricha, konvensiyaga qo'shilish O'zbekistonga o'z qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini ham beradi. Budapesht konvensiyasining talablaridan biri axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq ayrim faoliyat turlarini, masalan, ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, tizimlarga aralashish va zararli dasturlarni tarqatish kabilarni jinoiy javobgarlikka tortish hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mazkur kelishuv mamlakatimizning axborot texnologiyalar sohasida transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik bazasini mustahkamlashga yordam beradi. [9]

O'zbekistonning Budapesht konvensiyasiga qo'shilishi xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Konvensiyaga a'zo davlatlar jinoyatlarni tergov qilishda o'zaro yordam ko'rsatish, shuningdek, boshqa yurisdiksiyalarda jinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi. Bu, ayniqsa, global raqamli iqtisodiyotning bir qismi sifatida xalqaro kiber tahdidlarga duch kelayotgan O'zbekiston uchun juda muhim.

Budapesht konvensiyasidagi ishtiroki tufayli O'zbekiston Interpol va Yevropol kabi tashkilotlar, shuningdek, konvensiyaga a'zo davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan faol hamkorlik qilishi mumkin. Ushbu hamkorlik mamlakatning murakkab axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarni tergov qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi va aybdorlarni javobgarlikka tortish jarayonini tezlashtiradi.

O'zbekiston Budapesht konvensiyasiga qo'shilgach, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonini boshladi. Qonunchilikdagi o'zgarishlar kiberjinoyatlarga ta'riflarni kengaytirish, ularni sodir etganlik uchun sanksiyalarni kuchaytirish, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Bundan tashqari, konvensiyada ishtirok etish huquqni muhofaza qilish organlari va sudlar xodimlarini kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning yangi usullariga o'rgatishdan iborat institutsional bazani rivojlantirish va mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

2001-yilda tashkil etilgan **Shanxay Hamkorlik Tashkiloti** (ShHT) eng yirik xalqaro tashkilotlardan biri bo'lib, asosiy maqsadi Yevroosiya mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdir. So'nggi yillarda nafaqat an'anaviy xavfsizlik masalalariga, balki axborot texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan kiberhujumlar, kiberjosuslik va zararli dasturlarning tarqalishi kabi tahdidlarga ham e'tibor qaratilmoqda. Ishtirokchi davlatlar, jumladan, O'zbekiston ham axborot almashish, axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlar javob berishning qo'shma mexanizmlarini ishlab chiqish va mashg'ulotlar o'tkazish orqali kiberxavfsizlik sohasida hamkorlik qiladi. [10]

O'zbekistonning ShHT bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlaridan biri qo'shma mashg'ulotlar va axborot almashish dasturlarida ishtirok etishdir. Ushbu mashqlar a'zo mamlakatlarga kiberhujumlarga javob berish va transmilliy kibertahdidlarni aniqlash mexanizmlarini amaliyotga o'tkazish imkonini beradi. 2023-2024-yillarda O'zbekiston xakerlik

hujumlari va kiberjosuslik holatlarida harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli mashg'ulotlarda ishtirok etdi.

Bunday tadbirlar tufayli O'zbekiston ilg'or tajriba va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, axborot texnologiyalar sohadagi zamonaviy chaqiriqlarga qarshi turish qobiliyatini mustahkamlamoqda. ShHTga a'zo boshqa davlatlar bilan birgalikdagi sa'y-harakatlar kibertahdidlar haqida erta ogohlantirishning yagona tizimini yaratishga hissa qo'shmoqda. Bu esa yuzaga kelayotgan xatarlarga tezkorlik bilan javob qaytarish imkonini beradi.

ShHT mintaqaviy darajada kiberfaoliyatni nazorat qiluvchi va tahdidlarni tahlil qiluvchi ixtisoslashtirilgan kibermarkazlarni yaratish imkoniyatini ham ko'rib chiqmoqda. O'zbekiston muhim infratuzilmani kiberhujumlardan himoya qilishni kuchaytirish zarurligini anglagan holda ushbu tashabbusni faol qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston ShHTning boshqa davlatlari bilan hamkorlikda kiberxavfsizlik sohasida o'zining texnik va kadrlar bazasini mustahkamlashga intiladi.

BMT global axborot texnologiyalari sohasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi va O'zbekistonning BMT tashabbuslarida ishtirok etishi raqamli makonda milliy va xalqaro manfaatlarni himoya qilish muhimligini aks ettiradi. O'zbekiston ishtirok etayotgan BMTning asosiy tashabbuslaridan biri BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) tomonidan ishlab chiqilgan Kiberjinoyatchilikka qarshi global dasturdir. Dastur mamlakatlarning kibermakon tahdidlaridan himoyalashning qonunchilik va institutsional mexanizmlarini yaratish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash orqali axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan. [11]

O'zbekistonning ushbu dasturdagi ishtiroki axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlarni tergov qilish va ta'qib qilish bo'yicha boshqa davlatlar bilan texnik yordam olish va tajriba almashishdan iborat. UNODC O'zbekiston huquq-tartibot idoralariga treninglar va seminarlar ko'rinishida yordam ko'rsatadi. Bu esa mamlakat mutaxassislariga axborot texnologiyalar sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashning so'nggi jahon tendensiyalaridan xabardor bo'lish imkonini beradi. Bunday o'zaro hamkorlikning muhim tarkibiy qismi jinoyatlarni tergov qilishda ma'lumotlar va dalillar almashinuvi bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir.

Shuningdek, BMT kiberxavfsizlikni mamlakatlarning raqamli transformatsiyasining zarur elementi sifatida ko'ruvchi Barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDGs) faol ravishda ilgari surmoqda. O'zbekiston uchun BMTning ushbu tashabbuslarida ishtirok etish uning raqamli infratuzilmasini takomillashtirish va kibertahdidlarga qarshi turishga qodir tizim yaratish bilan bog'liq. BMT mamlakatimizni iqtisod va jamiyatlarda kiberbardoshlik va ma'lumotlar himoyasini yaxshilash uchun me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston BMT shafeligida tuzilgan kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro strategik guruh ishida ham ishtirok etmoqda. Bu guruh kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish va axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatchilikni kamaytirish bo'yicha mamlakatlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi. Strategiya guruhi a'zo mamlakatlarga kibertahdidlarga javob berish va yangi xalqaro xavfsizlik standartlarini

ishlab chiqish uchun global tizimlarni yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishda yordam beradi.

Yevropa Ittifoqi ham turli texnik yordam va tajriba almashish dasturlari orqali O'zbekistonning kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Shunday tashabbuslardan biri Yevropa Ittifoqi hamkor davlatlari, jumladan, O'zbekistonga kiberxavfsizlik sohasidagi ilg'or tajriba va bilimlardan foydalanish imkonini beruvchi Texnik yordam va axborot almashinuvi (TAIEX) dasturidir. Mazkur dastur doirasida O'zbekistonlik mutaxassislar Yevropa davlatlarida o'qitilmoqda. Bu esa o'zaro tajriba almashish va milliy kiberxavfsizlik tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi O'zbekiston bilan Sharqiy hamkorlik va Markaziy Osiyo mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va kiberxavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan "EU4Digital" dasturi orqali hamkorlik qiladi. Ushbu dasturda ishtirok etish O'zbekistonga axborot texnologiyalari sohasida xavfsizlik bo'yicha sa'y-harakatlarini Yevropa standartlari va yondashuvlari bilan birlashtirishga yordam beradi. [12]

Bugungi kunda **Interpol** o'zining global tarmog'i orqali mamlakatlarga axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda yordam berib, axborot almashish, texnik yordam va xalqaro operatsiyalarni muvofiqlashtirish uchun platformalar taqdim etadi. O'zbekiston Interpolning kibermakondagi transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashga qaratilgan Kiberjinoyatchilik bilimlari almashinuvi (Cybercrime Knowledge Exchange) va Kiber tahlil markazi (Cyber fusion Center) kabi dasturlarida ishtirok etadi. Bu tashabbuslar O'zbekiston huquq-tartibot idoralariga boshqa mamlakatlardagi hamkasblari bilan tezkor ma'lumot almashish, tergovni muvofiqlashtirish va kiberhujumlarni to'xtatish bo'yicha xalqaro operatsiyalarda ishtirok etish imkonini beradi. [13]

Interpol axborot texnologiyalari sohasida transmilliy jinoyatlarga, jumladan firibgarlik, ma'lumotlarni o'g'irlash va onlayn moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha xalqaro operatsiyalarni muvofiqlashtiradi. Ushbu amaliyotlar doirasida O'zbekiston boshqa davlatlar bilan hamkorlik qiladi va bunday jinoyatlarga chek qo'yishga qaratilgan global operatsiyalarda ishtirok etadi. Bunga 60 dan ortiq davlat, jumladan, O'zbekiston ham qatnashgan "Kumush bolta" (Silver axe) xalqaro operatsiyasini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu operatsiya transmilliy kiberjinoyatchilikning bir ko'rinishi bo'lgan Internet tarmog'ida noqonuniy tovarlarni sotishning oldini olishga qaratilgan edi.

Interpol bilan hamkorlik O'zbekistonga kiberxavfsizlik va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi milliy qonunchiligini takomillashtirishga ham yordam beradi. Bunga raqamli jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha yanada qat'iy choralar ko'rish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va kiberjinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun huquqiy asos yaratishlarni keltirish mumkin.

Yevropol (Yevropa politsiya boshqarmasi) Yevropada uyushgan jinoyatchilik va axborot texnologiyalari sohasi jinoyatchiliklarga qarshi kurash uchun mas'ul bo'lgan Yevropa Ittifoqining asosiy organidir. Yevropol o'z vazifalari doirasida axborot almashish, qo'shma operatsiyalar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini rivojlantirish uchun platformani taqdim etish orqali xalqaro sa'y-harakatlarni muvofiqlashtiradi. O'zbekiston Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmasa-da, transmilliy darajada kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha Yevropol bilan yaqin hamkorlik qiladi.

O'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri O'zbekistonning Yevropolning kiberxavfsizlik va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tashabbuslarida ishtirok etishidir. Yevropol bilan hamkorlik qilish orqali O'zbekiston ilg'or texnologiyalar va tergov usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish va yuzaga kelayotgan tahdidlar haqida ma'lumot almashish imkonini beradi. [14]

Yevropol transmilliy kiberjinoyatlar bo'yicha tezkor ma'lumotlar almashinuvi va birgalikda tergov o'tkazishda O'zbekistonni faol qo'llab-quvvatlaydi. Yevropol tahliliy ma'lumotlariga kirish O'zbekiston huquq-tartibot idoralariga yangi tahdidlarga tezroq javob berish va milliy infratuzilmalarga yirik hujumlarning oldini olish imkonini beradi. [15]

Yevropol O'zbekistonda kiberjinoyatlarni tergov qiluvchi huquq-tartibot idoralari xodimlari malakasini oshirishda ham katta yordam beradi. Xususan, "EC3" (Yevropa kiberjinoyatchilik markazi) dasturi orqali Yevropol o'zbek kiberxavfsizlik mutaxassislari uchun treninglar, seminarlar va kurslar tashkil etadi. Bu ularning kiberjinoyatlarni tekshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va raqamli izlarni aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshiradi. Qo'shma o'quv dasturlari axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarga qarshi milliy himoyani kuchaytirish, kiberhujumlarga javob choralarini yaxshilash va bu boradagi xalqaro hamkorlikni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, Yevropol o'zbek mutaxassislariга murakkab kiberjinoyatchilik holatlarini yanada samaraliroq tekshirish imkonini beruvchi ilg'or tahliliy va texnik vositalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Xalqaro elektraloqa ittifoqi BMTning ixtisoslashgan agentligi bo'lib, telekommunikatsiya va texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, global axborot va kommunikatsiya infratuzilmasining xavfsiz va barqaror ishlashini ta'minlash masalalari bilan shug'ullanadi. Xalqaro elektraloqa ittifoqi faoliyatining muhim qismi kiberxavfsizlik standartlari va mamlakatlarga kibertahdidlardan himoyalaniш bo'yicha milliy strategiyalarini takomillashtirishga yordam beruvchi tavsiyalarni yaratishdan iborat.

Адабиётлар/Литература/References:

1. World Cybersecurity Association. (2021). Global Cybercrime Report.
2. Top Cybersecurity Statistics for 2024 // <https://www.cobalt.io/blog/cybersecurity-statistics-2024>
3. Uzbekistan battled 11 million cyberattacks in 2023 // <https://www.businessupturn.com/technology/cyber-security/uzbekistan-battled-11-million-cyberattacks-in-2023/>
4. Uzbekistan reports over 3 million cyberattacks for Q1 2024 // <https://kun.uz/en/news/2024/04/06/uzbekistan-reports-over-3-million-cyberattacks-for-q1-2024>
5. O'zbekistonda axborot xavfsizligi konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda // <https://www.xabar.uz/uz/texnologiya/ozbekistonda-axborot-xavfsizligi>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.11.2018 yildagi PQ-4024-son // <https://lex.uz/docs/-4071401>
7. Markaz haqida // <https://csec.uz/uz/company/>
8. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.04.2022 yildagi O'RQ-764-son // <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>
9. Kiberxavfsizlik // <https://tuit.uz/axborot-xavfsizligi-fakulteti>

10. Eesha Chakraborty “Uzbekistan battled 11 million cyberattacks in 2023” // <https://www.businessupturn.com/technology/cyber-security/uzbekistan-battled-11-million-cyberattacks-in-2023/>
11. SCO countries experts to discuss information security issues // <https://www.un.int/uzbekistan/news/sco-countries-experts-discuss-information-security-issues>
12. Uzbekistan - strengthening digital skills to build a safe cyberspace for children // <https://uzbekistan.un.org/en/241659-uzbekistan-strengthening-digital-skills-build-safe-cyberspace-children>
13. Expert Conference on Security Issues in the Central Asia-EU Format Held in Tashkent // <https://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/expert-conference-security-issues-central-asia-eu-format-held-tashkent-en?s=233>
14. INTERPOL interested in deepening cooperation with Uzbekistan // <https://kun.uz/en/news/2022/03/12/interpol-interested-in-deepening-cooperation-with-uzbekistan#!>
15. Uzbekistan to host Group-IB's first Digital Crime Resistance Center in Central Asia // <https://www.group-ib.com/media-center/press-releases/digital-crime-resistance-center-central-asia/>
16. Uzbekistan, Europol set to sign strategic cooperation agreement // <https://tashkenttimes.uz/national/2271-uzbekistan-europol-intend-to-sign-strategic-cooperation-agreement>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).